

The necessity of assessment of students' oral speech in mother tongue education

Shokhrukh ABDIRAIMOV¹

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2024

Received in revised form

10 April 2024

Accepted 25 April 2024

Available online

25 July 2024

Keywords:

assessment,
oral speech,
assessment criteria,
speech qualities.

ABSTRACT

International integration requires a revision of the procedure and content of the teaching and evaluation process. This thesis reveals the current state of assessment of students' native language skills, the demand for assessment, and the relevance of developing an assessment criterion in the cross-section of classes. In the study, the current evaluation systems were analyzed from the point of view of evaluating students' oral speech. Also, in order to determine the necessity of assessment of students' ability to speak in their native language, a survey was conducted with the participation of native language and literature teachers, and the results were analyzed. Based on the analysis of the results, it was determined that it is necessary to develop a criterion for evaluating the ability to speak the mother tongue in the cross-section of classes.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss3-pp392-398>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ona tili ta'limida o'quvchilarining og'zaki nutqini baholash zarurati

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

baholash,
og'zaki nutq,
baholash mezonlari,
nutq sifatlari.

Xalqaro integratsiyalashuv o'qitish va baholash jarayonini tashkil etish tartibi, mazmunini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Mazkur tezisda o'quvchilarning ona tilida so'zlash ko'nikmasini baholashning mavjud holati, baholash zarurati hamda sinflar kesimida baholash mezonini ishlab chiqish dolzarbligi ochib berilgan. Tadqiqotda o'quvchilarning og'zaki nutqini baholash nuqtayi nazaridan amaldagi baholash tizimlarida tahlil etilgan. Shuningdek, o'quvchilarning ona tilida so'zlash ko'nikmasini baholash zaruratini aniqlash maqsadida

¹ PhD student (DSc), Doctor of Philosophy in Pedagogy, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari ishtirokida so'rovnomalar o'tkazilib, natijalari tahlil etilgan. Natijalar tahlili asosida ona tilida so'zlash ko'nikmasini sinflar kesimida baholash mezonini ishlab chiqilishi zarurligi aniqlangan.

Необходимость оценки устной речи учащихся при обучении родному языку

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

оценка,
устная речь,
критерии оценки,
речевые качества.

Международная интеграция требует пересмотра процедуры и содержания процесса обучения и оценивания. В данной научной работе раскрывается современное состояние оценки знаний учащихся по родному языку, востребованность оценки и актуальность разработки критерия оценки в разрезе классов. В ходе исследования были проанализированы существующие системы оценивания с точки зрения оценки устной речи учащихся. Также с целью определения необходимости оценки умений учащихся говорить на родном языке был проведен опрос с участием учителей родного языка и литературы, результаты которого были проанализированы. На основе анализа результатов было определено, что необходимо разработать критерий оценки умения говорить на родном языке в разрезе классов.

KIRISH

Global tadqiqotlar natijasini shuni ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiy o'sishi uchun o'quvchilarga maktabda nafaqat ta'lim berish, balki o'qitish natijalarini baholash ham muhimdir. Shu nuqtayi nazardan, ona tili ta'limida o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, baholash jarayonini to'g'ri tashkil etish ham zarur va dolzarb hisoblanadi. Bunda har bir nutqiy ko'nikmaning o'rni bor. Ayniqsa, og'zaki nutqning real hayotda, muloqot jarayonida ahamiyatlilik darajasi yuqori. Darhaqiqat, "og'zaki nutqni yozma nutqdan ajratib turuvchi talaffuzning xususiyatlari insonlarning kundalik hayoti, ta'lim va ish hayotining ajralmas qismiga aylangan" [1].

ASOSIY QISM

Ona tili ta'limida og'zaki nutqni baholash zaruratini o'rganish maqsadida kichik tadqiqot o'tkazildi. Unda o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish va baholash holatini va ona tili ta'limida baholash metodikasini takomillashtirish zaruratini aniqlash maqsadida amaldagi mavjud imtihon tizimlari, o'quv-metodik adabiyotlar hamda o'qituvchilar fikri o'rganildi. Jumladan, umumiy o'rta ta'limda yakuniy davlat attestatsiyasi va oliy ta'limga kirish sinovlari hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilishi kutilayotgan Bilimni baholashning yangi tartibi mazmuni tahlil etib ko'rildi.

Dastlab Yakuniy davlat attestatsiyasiga [5] to'xtaladigan bo'lsak, bu imtihonda bitiruvchilar ona tili va adabiyot fanidan o'zlashtirish darajasi bayon yoki insho orqali baholanadi. Bunda yozma ishlarga ikkita baho qo'yiladi:

- birinchisi (suratda) adabiyotdan yozma ish mazmuni uchun;
- ikkinchisi (maxrajida) ona tilidan savodxonligi uchun.

Ushbu baholar adabiyot va ona tili fanlariga yakuniy attestatsiya bahosi sifatida qo'yiladi hamda shu fanlardan yakuniy baho chiqarishda asos bo'ladi.


Ko'rinadiki, umumiy o'rta ta'limning yakuniy davlat attestatsiyasida bitiruvchining yozish (insho orqali) yoki eshitib tushunish va yozish (bayon orqali) malakalari baholanmoqda. O'qib tushunish, so'zlash ko'nikmalari baholanmaydi.

Endi esa oliy ta'limga kirish imtihonlari haqida to'xtalsak. Bu imtihon tizimida imtihon topshiruvchilarning ona tili va adabiyotdan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalari yopiq turdagi test topshiriqlari yordamida baholanadi. Bu imtihon jarayonini tashkillashtirish, topshiriqlar mazmuni va metodikasini belgilash bilan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi shug'ullanadi. Agentlikning rasmiy veb-sahifasida e'lon qilingan Ona tili va adabiyot fanidan namunaviy test topshiriqlarini [6] tahlil qiladigan bo'lsak, jami 30 ta topshiriq berilgan, bu topshiriqlar orqali o'quvchilarning leksik-grammatik savodxonligi, o'qib tushunish ko'nikmasi baholanmoqda. Biroq o'quvchilarning og'zaki nutqi baholanmaydi. Shuningdek, Vazirlik tomonidan joriy etilayotgan Bilimni baholashning yangi tartibida ham ona tili fanidan Bob bo'yicha summativ baholash va Choraklik summativ baholashlarda foydalanilayotgan topshiriqlar tahlil etib ko'rildi, ushbu baholashda ham o'quvchilarning og'zaki nutqi baholanmasdan qolib ketmoqda.

Shundan so'ng, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarning og'zaki nutqini baholash holati va zaruratini aniqlash maqsadida ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari ishtirokida docs.google.com veb-sahifasida so'rovnoma o'tkazildi. Ushbu so'rovnoma, respublikaning turli hududlaridan bo'lgan ona tili va adabiyoti fanidan dars beruvchi 89 nafar o'qituvchi qatnashdi. So'rovnoma natijalarini tahlil qilib ko'rsak.

Avvalo, o'qituvchilardan qaysi hududda faoliyat yuritishi so'raldi, natijalarini 1-diagrammada aks etgan.

Hududingiz:
89 ответов




1-diagramma. O'qituvchilarning faoliyat yuritadigan hududlari

Ko'rinadiki, so'rovnomada turli viloyatlarda faoliyat yuritayotgan ona tili va adabiyot fanidan dars beradigan o'qituvchilar ishtirok etishgan.

Shundan so'ng dars jarayonida o'quvchilarning og'zaki nutqini qay darajada baholab borishi so'raldi. (2-diagrammaga qarang.)

[H] Ona tili ta'limida dars jarayonida o'quvchilaringizning og'zaki nutqini baholab borasizmi?

89 ответов




2-diagramma. O'qituvchilarning dars jarayonida o'quvchilaringizning og'zaki nutqini baholab borishi

Ko'rinadiki, ona tili fanidan dars beruvchi o'qituvchilar 51,7%i o'quvchilarining og'zaki nutqini doim baholab borishini ta'kidlashgan, 44,9%i esa tez-tez baholab borishini qayd etishgan. Qolgan o'qituvchilar o'quvchilarining og'zaki nutqini deyarli baholamasligini qayd etishgan.

Shundan so'ng, o'qituvchilardan ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki nutqini baholaganida nutqning asosan qaysi jihatlariga e'tibor qaratishi so'raldi. (3-diagrammaga qarang).

[H] Ona tili ta'limida o'quvchilarning og'zaki nutqini baholaganingizda nutqning asosan qaysi jihatlariga e'tibor qilasiz?

89 ответов




3-diagramma ona tili ta'limida o'quvchilarning og'zaki nutqini baholashda og'zaki nutqning asosan qaysi jihatlariga e'tibor berish holati

Natijalar shuni ko'rsatdiki, ishtirokchilar asosan o'quvchilarning og'zaki nutqining ravonligi va to'g'riligini baholashga e'tibor qaratishmoqda. Baholash jarayonida og'zaki nutqning tugalligi, jo'yaliligi, izchilligi kabilar e'tibordan chetda qolmoqda.

Keyingi savolda o'quvchilarni og'zaki nutqini baholashda ularga to'sqinlik qiladigan omillar so'raldi. (4-diagrammaga qarang).

[H] Ona tili ta'limida o'quvchilarining og'zaki nutqini baholashda to'sqinlik qiluvchi omillarni belgilang.

89 ответов



4-diagramma. Ona tili ta'limida o'quvchilarning og'zaki nutqini baholashda to'sqinlik qiluvchi omillar holati


Ko'rinadiki, o'qituvchilarning 56.2%i barcha o'quvchilarning og'zaki nutqini baholashga vaqt yetmasligini qayd etishgan, 21,3% ishtirokchilar esa, sinflar kesimida og'zaki nutqni baholash mezonini mavjud emasligini ta'kidlashgan. Shuningdek, 17% o'qituvchilar oliy ta'limga kirish sinovlarida og'zaki nutqni baholanmasligini sabab sifatida qayd etishgan. Demak ona tili ta'limida o'quvchilarning og'zaki nutqini baholanmasligiga uchta asosiy omil mavjud ekan:

- dars davomida barcha o'quvchilarning og'zaki nutqini baholashga vaqt yetmaydi;
- ona tili ta'limida o'quvchilarning og'zaki nutqini sinflar kesimida baholash mezonini mavjud emas;
- oliy ta'limga kirish sinovlarida og'zaki nutqni baholanmasdan qolib ketayotgani.

Navbatdagi savolda og'zaki nutqni baholash mezonlarining mavjud yoki mavjud emasligini, mavjud baholash mezonlaridan xabardorligini aniqlash maqsadida o'qituvchilardan darslik hamda metodik qo'llanmalarda og'zaki nutqni baholash mezonlari berilganmi, deya so'raldi. (5-diagrammaga qarang)

[H] Ona tili darsliklari va metodik qo'llanmalarida o'quvchilarning og'zaki nutqini baholash mezonlari berilganmi?

89 ответов



5-diagramma. Ona tili darsliklarida va metodik qo'llanmalarda og'zaki nutqni baholovchi mezonning mavjud yoki mavjud emasligi holati


Ko'rinadiki, respondentlarning 47.2%i darslik va metodik qo'llanmalarda og'zaki nutqni baholash mezonlari bor ekanligini, 20.2% esa "yo'q" ekanligini qayd etishgan. O'qituvchilar 32.6 %i esa baholash mezonini ko'rmaganliklarini ta'kidlashgan.

Umuman, o'qituvchilarning yarmidan ortig'i o'quvchilarni og'zaki nutqini baholash mezonlari darslik hamda metodik qo'llanmalarda mavjud emasligi ta'kidlashgan.

Keyingi savolda esa, o'qituvchilardan o'quvchilarning og'zaki nutqini baholash uchun har bir sinfga mo'ljallangan ma'lum bir baholash mezonga ehtiyoj bor yoki yo'qligini aniqlash maqsadida savol taqdim etildi. (6-diagrammaga qarang).

[Z] Ona tili darslarida har bir sinf uchun o'quvchilarning og'zaki nutqini baholash mezonlariga ehtiyoj bormi?

89 ответов



6-diagramma. Til ta'limida og'zaki nutqni baholashda har bir sinf uchun mezon zarurati

Natija shuni ko'rsatadiki, deyarli 90% o'qituvchi o'quvchilarning og'zaki nutqini baholash mezoniga ehtiyoj borligini qayd etishgan, qolgan qariyb 10% respondent esa ona tilida nutq so'zlashda ma'lum mezonga ehtiyoj yo'qligini ta'kidlashgan. Bu o'quvchilarning og'zaki nutqini sinflar kesimida baholash mezonini ishlab chiqish shartligi ko'rsatmoqda.

XULOSA

Demak, mavjud baholash tizimlarini tahlil etish, o'qituvchilar ishtirokida so'rovnoma o'tkazib, natijasini tahlil etish orqali quyidagicha xulosaga kelindi:

birinchidan, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarining o'quvchilar og'zaki nutqni baholash yuzasidan bilim va ko'nikmalari yetarli darajada emas;

ikkinchidan, mavjud baholash tizimlarida o'quvchilarning ona tilida so'zlash ko'nikmasi baholanmaydi;

uchinchidan, o'quvchilarning ona tilida so'zlash ko'nikmasi baholanmasligiga dars davomida barcha o'quvchilarning og'zaki nutqini baholashga vaqt yetishmasligi, og'zaki nutqini sinflar kesimida baholash mezoni mavjud emasligi, oliy ta'limga kirish sinovlarida og'zaki nutqni baholanmasdan qolib ketayotganligi sabab bo'lmoqda;

to'rtinchidan, o'quvchilarning ona tilida so'zlash ko'nikmasini sinflar kesimida baholash mezoni ishlab chiqilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bozkurt, B, Ü. (2017). Türkçe anadili konuşucuları için konuşma becerisi değerlendirme çerçevesi önerisi. Ana Dili Eğitimi Dergisi, 5(4), 924-947.
2. Hilma Safitri; Zainal Rafli; Ratna Dewanti. Improving Students' Speaking Skills through Task-Based Learning: An Action Research at the English Departmen. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding Volume 7, Issue 6 July, 2020 Pages: 88-99. <http://dx.doi.org/10.18415/ijmmu.v7i6.1647>
3. Qodirova. R.M Qodirova R.F. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". T., "Istiqlol", 2006.
4. Jalilov K. 2020. Baholash nazariyasi asoslari. –Toshkent, Akademnashr. B. 252 bet.
5. Xalq ta'limi vazirining 2008-yil 4-martdagi "Umumiy o'rta ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida"gi 56-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan nizom. <https://lex.uz/docs/-1331874>
6. Ona tili va adabiyot fanidan namunaviy test topshiriqlari. https://uzbmb.uz/upload/file/2021_namuna/2022/pdf/ONA%20TILI%20VA%20ADABIYOT.pdf